



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QUMQO‘RG‘ON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Qumqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston shoh ko‘chasi 1-uy. 190900, tel.: (+99876) 46-52-511, qumhok@exat.uz

2022 - yil 24 - iyun

344-8-114-Q/22

Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

**Qumqo‘rg‘on tumanining qishloq aholi punktlari hamda ijtimoiy soha
obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflarini
belgilash to‘g‘risida**

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrda “Kommunal xizmatni boshqarish tizimini yanada isloh qilish to‘g‘risida”gi PF–2791-sonli Farmoni 4-bandi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyulda 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish qoidalarini”ning 118-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 1-ilovaga muvofiq, qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qaror “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasida rasman e’lon qilish hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish tavsiya etilsin.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.
4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari J.Shapulatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.M.Normamatov

Qumqo'rg'on tuman hokimining
2022 yil 24 iyundagi
344-8-114-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

T A R I F L A R I

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo'lgan o'rtacha masofasi (km)	QFY soni	Hudud bo'yicha o'rtacha tarif		
				so'm/ tn-km	so'm/tn	so'm/ litr
1.	Saxovat MFY	47	1	1320	11047	11,04
2.	Tebat MFY	65	1			
3.	Bobotog' MFY	38	1			
4.	Azlarsoy MFY	14	1			
5.	Tayfang MFY	23	1			
6.	Yangiobod MFY	20	1			
	Jami	207	6	x	x	x

Qumqo'rg'on tuman hokimining
2022 yil 24 iyundagi
344-8-114-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**Tumanning qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini
maxsus texnikalarda yetkazib berish**

T A R I F L A R I

QQSsiz

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo'lgan o'rtacha masofasi (km)	Ijtimoiy muassasa soni	Hudud bo'yicha o'rtacha tarif		
				so'm/tn-km	so'm/tn	so'm/ litr
1.	Saxovat MFY	47	2	1856	29102	29
2.	Tebat MFY	65	1			
3.	Bobotog' MFY	38	1			
4.	Azlarsoy MFY	14	2			
5.	Tayfang MFY	23	2			
6.	Yangiobod MFY	20	2			
	Jami	207	10	x	x	x